



ZAMAKHSHARI'S "AL-MUFASSAL": A UNIQUE SCIENTIFIC HERITAGE IN ARABIC LINGUISTICS

Utkir Mahmudov

Master's Student

Oriental University

Uzbekistan, Tashkent

ABOUT ARTICLE

Key words: Zamakhshari, Al-Mufassal, Arabic grammar, nahw, Basri school, Kufi school, linguistics.

Received: 09.05.25

Accepted: 11.05.25

Published: 13.05.25

Abstract: The article examines in detail the contribution of the great medieval Eastern scholar Imam Zamakhshari to the development of Arabic linguistics through his fundamental work "Al-Mufassal." The structure of the work, the theoretical and practical aspects of the grammatical approach, the attempt to synthesize the Basri and Kufi schools, as well as the influence of the book on subsequent grammatical studies, are analyzed. Particular attention is paid to the significance of this work in the systematization of Arabic syntactic and morphological thought and its relevance in modern linguistics.

ZAMAXSHARIYNING "AL-MUFASSAL" ASARI: ARAB TILSHUNOSLIGIDA NOYOB ILMIY MEROS

O'tkir Mahmudov

magistratura talabasi

Oriental Universiteti

O'zbekiston, Toshkent

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Zamaxshariy, Al-Mufassal, nahv, arab grammatikasi, Basra maktabi, Kufa maktabi, tilshunoslik metodlari.

Annotatsiya: Maqolada o'rta asr sharq allomasi Imom Zamaxshariyning "Al-Mufassal" asari arab tilshunosligi rivojida tutgan o'rni chuqur yoritiladi. Unda asarning tuzilishi, grammatik yondashuvlarining nazariy va amaliy jihatlari, Basra hamda Kufa nahviy maktablari orasidagi muvozanat, shuningdek, "Al-Mufassal"ning keyingi tilshunoslik ishlanmalarga ta'siri tahlil qilinadi. Zamaxshariyning grammatik

tafakkuri arab sintaksisi va morfologiyasini tizimlashtirishda burilish yasagan. Maqola asarda ilgari surilgan ilmiy metodlarning bugungi lingvistikada ham dolzarbligini ko'rsatib beradi.

ЗАМАХШАРИ «АЛЬ-МУФАССАЛЬ»: УНИКАЛЬНОЕ НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ В АРАБСКОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Уткир Махмудов

Магистрант

Oriental университета

Узбекистан, Ташкент

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Замахшари, Аль-Муфассаль, арабская грамматика, нахв, басрийская школа, куфийская школа, языкознание.

Аннотация: В статье подробно рассматривается вклад великого средневекового восточного учёного Имама Замахшари в развитие арабского языкознания через его фундаментальный труд «Аль-Муфассаль». Анализируется структура труда, теоретические и практические аспекты грамматического подхода, попытка синтеза басрийской и куфийской школ, а также влияние книги на последующие грамматические исследования. Особое внимание уделяется значению этого труда в систематизации арабской синтаксической и морфологической мысли и его актуальности в современной лингвистике.

KIRISH

Arab tili islom ilm-fanining, tafsir, hadis, fiqh va boshqa diniy hamda dunyoviy fanlarning asosiy vositasi bo'lib, o'rta asrlardan beri ilmiy merosni o'rganish va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Xususan, Zamaxshariy kabi buyuk allomalarning lingvistik va nazariy qarashlari arab tilshunosligi rivojida o'ziga xos iz qoldirgan. Uning "Al-Mufassal" asari arab tili grammatikasi va sintaksisi bo'yicha muhim ilmiy manba bo'lib, nafaqat o'z davrida, balki keyingi asrlarda ham arab tilshunosligi rivojiga ulkan ta'sir ko'rsatgan.

Bugungi kunda arab tilining nazariy asoslarini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Sababi:

Tilshunoslik va grammatik tadqiqotlar nuqtayi nazaridan – Zamaxshariyning "Al-Mufassal" asarida arab tilining fonetik, morfologik va sintaktik tizimi chuqur o'rganilgan. Zamonaviy tilshunoslikda ushbu yondashuvlar qanchalik dolzarb ekanligini tahlil qilish muhimdir.

Islom ilmiy merosining tadqiqi va rivoji nuqtayi nazaridan – Zamaxshariy o‘z asarida arab tili qoidalarini faqat nazariy jihatdan emas, balki Qur’on tili va lug‘ati asosida yoritgan. Ushbu yondashuv diniy manbalar tilini chuqurroq anglashda asos bo‘lib xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

Arab tilining bugungi kundagi o‘rni va tarqalishi nuqtayi nazaridan – XX va XXI asrda arab tili nafaqat islom dunyosida, balki xalqaro miqyosda ham muhim vositaga aylandi. Uni o‘rganish va ilmiy asoslarini mukammal anglash bugungi kunda ham dolzarb hisoblanadi.

Zamaxshariyning tilshunoslikdagi o‘rni va ta’siri nuqtayi nazaridan – uning qarashlari nafaqat arab, balki fors va turkiy tillarning rivojlanishiga ham ta’sir ko‘rsatgan. Ushbu ta’sirni o‘rganish tilshunoslik fanining rivojlanish bosqichlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Zamaxshariyning tavalludi va ilk ta’limi, ilmiy safarlari va ustozlari.

Imom Zamaxshariy, to‘liq ismi Abu al-Qosim Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy, hijriy 467-yilda (milodiy 1074-yil) Xorazmning Zamaxshar qishlog‘ida tug‘ilgan. Zamaxshariy ilm-fan va adabiyot olamida ulug‘ siymolardan biri bo‘lib, ayniqsa, arab tili grammatika fani (nahv), tafsir, va adabiyot bo‘yicha yozgan asarlari bilan mashhurdir.

Zamaxshariy bolaligidan ilmga chanqoq bo‘lgan. U dastlabki ta’limini Zamaxshar qishlog‘ida olgan, so‘ngra Xorazm va boshqa shaharlarda ilmiy izlanishlarini davom ettirgan. Imomning arab tili grammatikasi va adabiyotidagi bilimlari shunchalik yuqori bo‘lganki, uni "Jarulloh" (Allohning qo‘shnisi) laqabi bilan ulug‘lashgan. Bu laqab u Makka shahrida bir muddat yashagani va o‘sha yerda ilm-fanga hissa qo‘shgani uchun berilgan.

Imom Zamaxshariyning eng mashhur asarlaridan biri "**Al-Kashshof**" bo‘lib, bu Qur’on tafsiriga bag‘ishlangan. Ushbu asar Qur’onni nozik va chuqur ma’nolarini grammatik tahlillar yordamida izohlash bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, u arab tilining grammatika fani bo‘yicha "**Al-Mufasssal**" nomli muhim asarni yozgan. Bu kitob nahv va sarf ilmlarining rivojlanishida asosiy manbalardan biri bo‘lib xizmat qilgan.

Zamaxshariy hayoti davomida katta hurmat qozongan, ammo uning fikrlari va qarashlari ba’zan bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan. U 538 hijriy (1144 milodiy) yilda vafot etgan va uning asarlari hanuzgacha arab va islom olamida katta ahamiyatga ega.

Imom Zamaxshariyning bolaligi haqida ulamolar quyidagicha fikr bildirganlar:

Ibn Xallikon o‘z asarida shunday yozadi:

"وُلِدَ الإمام الزمخشري في قرية زمخشر بخوارزم، ونشأ في بيئة متدينة حيث كان والده إماماً للمسجد"

Imom Zamaxshariy Xorazmning Zamaxshar qishlog‘ida tug‘ilgan va otasi masjid imomi bo‘lgan dindor oilada o‘sgan.[1]

Shuningdek, Ibn Xallikon Zamaxshariyning oyog‘idan judo bo‘lishi haqida shunday yozadi:

قيل إنه في صغره ربط رجل عصفور بخيط، فانكسرت رجل العصفور، فدعت عليه أمه بأن تتكسر رجله، فحصل له "ذلك."

Aytishlaricha, u yoshligida qushning oyog'ini ip bilan bog'lagan va qushning oyog'i sinib ketgan. Onasi unga oyog'i sinishini tilab duo qilgan va shunday bo'lgan.[2]

Bundan tashqari, olimlar Zamaxshariyning ilmga bo'lgan ishtiyoqi haqida ham fikr bildirganlar.

Masalan, Abu Sa'd as-Sam'aniy shunday deydi:

"كان الزمخشري حريصًا على طلب العلم منذ صغره، فتتقل بين البلدان ليلتقي بالعلماء ويتعلم منهم"

Imom Zamaxshariyning ilk ta'limi haqida:

Imom Zamaxshariy Xorazmning Zamaxshar qishlog'ida tug'ilgan va dastlabki ta'limni o'z qishlog'idagi diniy muhitda olgan. Uning otasi masjid imomi bo'lib, diniy ta'limga alohida e'tibor qaratgan. Bolaligida Zamaxshariy otasi qo'lida Qur'on o'qishni, yozishni va asosiy diniy bilimlarni o'rgangan.

"كان والده إمامًا في قريتهم، فبدأ تعليمه الأولي تحت إشرافه، حيث تعلم قراءة القرآن وعلوم الدين الأساسية".
"Otasi qishloqdagi masjid imomi bo'lgani uchun, Zamaxshariy ilk ta'limni uning nazorati ostida olgan. U Qur'on o'qish va asosiy diniy ilmlarni o'zlashtirgan." [3]

Ilmga bo'lgan qiziqishi: Zamaxshariyning bolalikdan ilmga bo'lgan qiziqishi kuchli bo'lib, bu uni o'sha davrning yirik ilmiy markazlariga yetakladi. Dastlabki ta'limini tugatgach, u Xorazm, Buxoro va boshqa shaharlarga safar qilib, mashhur olimlardan ta'lim oldi.

"كان الزمخشري محبًا للعلم منذ صغره، فسافر إلى بخارى ومرو لتلقي العلم من العلماء الكبار".
"Zamaxshariy bolaligidan ilmga chanqoq bo'lib, Buxoro va Marvga mashhur olimlardan saboq olish uchun safar qilgan." [4]

Zamaxshariyning ilk ta'limi uning ilmiy salohiyati va keyingi yutuqlarining poydevorini yaratdi. Diniy ta'lim, arab tili va lug'at ilmi uning ilmiy yo'nalishining muhim qismini tashkil etgan.

Imom Zamaxshariy o'z davrining yetuk olimlaridan ta'lim olib, ilmiy salohiyatini yuksaltirgan, o'zining ustozlariga chuqur hurmat bilan qaragan va ularni ilmiy yutuqlarida muhim rol o'ynagan shaxslar sifatida e'tirof etgan. Uning asarlarida ustozlariga bo'lgan minnatdorlik va ehtirom ifodalari uchrab turadi.

Imom Zamaxshariyning asosiy ustozlari quyidagilar:

1. Abu Mudar Mahmud ibn Jarir al-Isfahoni.

Zamaxshariy til, lug'at va adabiyot sohasida mashhur olim al-Isfahoniyan ta'lim olgan. Uning "Al-Mufassal" asarida al-Isfahoniyan o'rgangan bilimlari aks etgan. Zamaxshariy bu asarining muqaddimasida shunday deydi:

"إني تتلمذت على يد الشيخ الجليل أبي مضر محمود بن جرير الأصفهاني، فنهلت من علمه الوفير"

"Men ulug' shayx Abu Mudar Mahmud ibn Jarir al-Isfahoniy qo'lida ta'lim oldim va uning boy ilmidan bahramand bo'ldim."[5]

2. Abu Mansur Nasr al-Xorisiy.

Zamaxshariy Bag'dodda yashagan shayx ul-islom Abu Mansur Nasr al-Xorisiydan hadis ilmini o'rgangan. Uning "Al-Kashshof" asarida al-Xorisiydan olgan saboqlari namoyon bo'ladi. Zamaxshariy bu asarida shunday yozadi: "وقد أفدت من الشيخ أبي منصور نصر الخوارزمي في علم الحديث ما لا يُحصى" "Shayx Abu Mansur Nasr al-Xorazmiydan hadis ilmi bo'yicha behisob foyda oldim."[6]

3. Abu Sa'd ash-Shaqqoniy.

Zamaxshariy Bag'dodda yashagan mashhur olim Abu Sa'd ash-Shaqqoniydan hadis ilmidan saboq olgan. Uning "Asos al-Balag'oh" asarida ash-Shaqqoniydan o'rgangan bilimlari aks etgan. Zamaxshariy bu asarida shunday deydi: "ولقد تلقيت عن الشيخ أبي سعد الشقاني دروساً أفادتني في علم البلاغة" "Shayx Abu Sa'd ash-Shaqqoniydan balog'at ilmi bo'yicha foydali darslar oldim"[7].

Imom Zamaxshariy (1075–1144) o'z davrining yetuk olimi sifatida ko'plab shogirdlar yetishtirgan. Ularning ayrimlari quyidagilardir:

1. Abul Fath Burhoniddin Nosir ibn Abul Makorim Abdusayyid Mutarriziy Xorazmiy.

Mutarriziy "Sadru-l-afozil" (fozillar sardori) nomi bilan mashhur bo'lgan. Unga "Xalifatu Zamaxshariy" – "Zamaxshariyning o'rinbosari" laqabi berilgan, chunki u Zamaxshariy vafot etgan yili dunyoga kelgan va unga o'xshab arab tili olimlaridan bo'lgan. Mutarriziy nahv, lug'at va adabga oid bir qancha asarlar qoldirgan, jumladan, "Misbah fin-nahv" va "Izoh fi sharh maqomatil-Haririy".[8]

2. Abu Mansur al-Javoliqiy:

Zamaxshariyning shogirdlaridan biri bo'lib, lug'at va adabiyot sohasida mashhur olim edi. U "Al-Mu'arrab" asarini yozgan bo'lib, unda arab tiliga kirib kelgan so'zlar haqida ma'lumot beradi.[9]

3. Abu Sa'd al-Idrisi:

Zamaxshariyning shogirdlaridan biri bo'lib, u arab tili va adabiyoti bo'yicha bilimdon olim edi. U Zamaxshariydan ta'lim olib, keyinchalik o'zi ham shogirdlar yetishtirgan.[10]

Imom Zamaxshariyning ilmiy safarlari

Imom Mahmud Zamaxshariy (1075–1144) o'z davrining yetuk olimlaridan biri bo'lib, ilm-fan yo'lida Sharqning ko'plab yirik ilmiy markazlariga safar qilgan. Bu sayohatlar davomida u hadis, nahv (arab tili grammatikasi), lug'atshunoslik, tafsir va boshqa fanlar bo'yicha chuqur bilim olgan. U o'zining sermahsul ilmiy faoliyatini bu safarlar davomida shakllantirgan va boyitgan.

Nishopur

Nishopur o'sha davrda Sharqning muhim ilmiy markazlaridan biri edi. Zamaxshariy bu yerda arab tili grammatikasi va hadis ilmi bo'yicha mashhur olimlardan ta'lim olgan.

"كان الزمخشري قد درس النحو في نيسابور على يد كبار العلماء فيها"

Zamaxshariy Nishopurda o'z davrining yirik olimlari qo'lida nahvni o'rgangan.[11]

Bag'dod

Bag'dod o'sha davrda islom olamining eng yirik madaniy va ilmiy markazi bo'lgan. Zamaxshariy bu yerda hadis ilmini mashhur shayx Abu Mansur Nasr al-Xorisiy va boshqa olimlardan o'rgangan. Bag'doddagi ilmiy muhit uning tilshunoslik va tafsirga oid qarashlarini boyitgan.

Bag'dodda "وفي بغداد درس الزمخشري على يد الشيخ أبو منصور، وهو الذي أثر على فهمه اللغوي والتفسييري" Zamaxshariy Shayx Abu Mansur qo'lida o'qib, uning tilshunoslik va tafsirga ta'siri katta bo'ldi.[12]

Makka

Zamaxshariy o'z hayotida ikki marta Makkaga safar qilgan. Birinchi safarida u fiqh va lug'at ilmini mukammal o'rgangan, ikkinchi safarida esa Qur'on tafsiri bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan. Makkada yashagan davrida u "Jorulloh" (Allohning qo'shnisi) laqabini olgan.

"أقام الزمخشري بمكة فترة طويلة حيث عمل على تفسير القرآن الكريم بناء على أصول اللغة العربية" Zamaxshariy Makkada uzoq vaqt bo'lib, Qur'onni arab tilining asoslari asosida tafsir qilish bilan shug'ullangan.[13]

Isfahon va Marv

Isfahon va Marv ham Zamaxshariyning ilmiy safarlari davomida alohida o'rin tutgan. Bu shaharlar o'sha davrda arab tilshunosligi va grammatikasi bo'yicha yirik markazlar edi. Zamaxshariy bu yerda o'z bilimlarini yanada boyitib, kelajakdagi asarlariga asos solgan.

"زار الزمخشري مرو وأصفهان لاكتساب المعرفة في علوم اللغة والنحو" Zamaxshariy Marv va Isfahonga tilshunoslik va nahv ilmlarini o'rganish uchun tashrif buyurgan.[14]

Asarning yozilish tarixi va tuzilishi

Zamaxshariyning "al-Mufasssal fi san'ati al-i'rob" asari arab tilshunosligi tarixida ulkan ahamiyat kasb etgan va arab grammatikasining rivojlanishida muhim burilish nuqtasini belgilagan.

"Mufasssal" arab sintaksisiga mukammal yondashuvni taklif qilgan asarlardan biridir. Zamaxshariy unda so'z turkumlari, jumla tuzilishi, morfologik va sintaktik bog'lanishlarni batafsil tahlil qilgan. U Basra va Kufa nahv maktablari o'rtasidagi farqlarni muvozanatga keltirishga harakat qilgan. Masalan, Basra maktabi qat'iy qoidalar asosida ishlasa, Kufa maktabi ko'proq amaliy tajribaga asoslangan. Zamaxshariy ushbu ikki yondashuvni o'z asarida uyg'unlashtirgan.

Bu jihatdan, Ibn Xaldunning quyidagi fikrini eslash joiz:

"استيفاء مع عبارة أوجز في ومختصر لها، مستوعب وهو الإعراب صناعة في الزمخشري ألفه فقد المفصل وأما". كابر عن كابرأ ويتوارثونه يتدارسونه الصناعة، هذه أهل بين متداولاً وكان المسائل

"'Mufasssal' arab grammatikasi bo'yicha eng aniq va mazmunli asarlardan biridir. U barcha grammatik masalalarni sodda va tushunarli uslubda yoritib bergan. Kitob asosan Basra nahviy maktabiga asoslangan bo'lsa-da, unda ba'zi masalalarda Kufa nahviy maktabining ta'siri ham seziladi." [15]

Bu fikrga ko'ra, "Mufasssal" grammatikani o'rganishda eng muhim asarlardan biri bo'lib, undan grammatiklar avlodan-avlodga foydalanib kelgan. Zamaxshariyning yondashuvi grammatikani sodda va tushunarli shaklda tushuntirishga qaratilgan bo'lib, aynan shu sababli uning asari keyingi olimlar tomonidan keng o'rganilgan va sharhlangan.

"Mufasssal" arab grammatikasida nazariy asoslar bilan bir qatorda amaliy uslubni ham taklif qiladi. Zamaxshariy bu asarda grammatikani faqat nazariy jihatdan tushuntirish bilangina kifoyalanmay, balki uni qo'llash yo'llarini ham ko'rsatadi. Masalan, "al-Mufasssal"da i'rob qoidalar qat'iy tizimga solingan bo'lib, unda har bir so'z turkumining qanday grammatik holatda ishlatilishi batafsil yoritilgan.

Bu yondashuv haqida Versteegh quyidagicha fikr bildirgan:

"Az-Zamakhshari's 'al-Mufasssal' marks a turning point in Arabic grammar. It aims to reconcile the differences between the Basran and Kufan schools and establishes a more practical and systematic approach to grammar."

"Zamakhshariyning 'al-Mufasssal' asari arab grammatikasida burilish nuqtasini belgilaydi. U Basra va Kufa maktablari o'rtasidagi farqlarni muvozanatga keltirishga intilgan va grammatikani yanada amaliy va tizimli asosda tuzgan." [16]

Aytish mumki Zamaxshariy grammatikani faqatgina nazariy o'rganish obyekti emas, balki amaliy qo'llanma sifatida ham ishlab chiqdi. Uning yondashuvi keyinchalik arab grammatikasi bo'yicha o'qitish tizimlarida ham aks etgan.

"Mufasssal" boshqa grammatik asarlardan o'zining aniq va tizimli uslubi bilan ajralib turadi. Masalan, Ibn Hishomning "Mug'ni al-labib" asari grammatik qoidalarni sharhlash bilan shug'ullangan bo'lsa, "Mufasssal" grammatikani puxta tizimlashtirishga yo'naltirilgan. Zamaxshariy bunda har bir grammatik tushunchani alohida tahlil qilgan va ularni misollar orqali tushuntirib bergan. Masalan, u arab sintaksisida harakatlarning ifodalanishi bo'yicha quyidagi misollarni keltiradi:

"ضَرَبَ زَيْدٌ عَمْرًا" (Zayd Amrni urdi) "ضُرِبَ عَمْرٌ" (Amr urildi)

Bu misollar orqali u nahviy qoidalarning real nutqdagi ahamiyatini ko'rsatishga harakat qilgan.

Shu bilan birga, "Mufasssal" grammatik tadqiqotlarga ta'sir qilgan eng muhim manbalardan biri bo'lib, bu asarga Ibn Xaldun, Suyutiy, Ibn Hishom, Versteegh, Wright va Krachkovskiy kabi

olimlar e'tibor qaratgan. Bu olimlarning har biri "Mufasssal"ning grammatik tafakkurga qo'shgan hissasini alohida baholagan.

Masalan, Wright shunday deydi:

"Zamakhshari's work, al-Mufasssal, serves as one of the most comprehensive grammatical manuals in Arabic linguistic tradition. Its clarity, systematic arrangement, and theoretical precision influenced many later grammarians in the Islamic world." [17]

XULOSA

"Zamakhshariyning 'Mufasssal' asari arab tilshunoslik an'anasidagi eng keng qamrovli grammatik qo'llanmalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Uning aniqligi, tizimli tartibga solinishi va nazariy mukammalligi keyingi grammatik tadqiqotchilarga katta ta'sir ko'rsatgan.

Bu fikrni chuqur tahlil qilgan holda shuni aytishim mumkinki, Zamakhshariy grammatik tafakkurning yangi bosqichga ko'tarilishiga sabab bo'lgan. U grammatik nazariyalarini tizimlashtirish bilan birga, amaliy grammatikani ham rivojlantirdi.

"Mufasssal" arab tilshunosligi tarixida o'ziga xos o'rin tutadi. Uning arab sintaksisiga qo'shgan hissasi nafaqat o'rta asrlarda, balki bugungi kunda ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Zamakhshariy grammatik nazariyalarni amaliyot bilan uyg'unlashtirgan holda, arab tili grammatikasining asosiy tamoyillarini ishlab chiqdi va bu uning eng katta ilmiy yutug'i hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ibn Xallikon - "Vafayatul A'yan" - Bayrut, 1968 - J. 5, B. 197.
2. Ibn Xallikon - "Vafayatul A'yan" - Bayrut, 1968 - J. 5, B. 198.
3. Ibn Xallikon - "Vafayatul A'yan" - Bayrut, 1968 - J. 5, B. 197
4. Abu Sa'd as-Sam'aniy - "Al-Ansab" - Haydarobod, 1962 - J. 3, B. 273
5. Mahmud Zamakhshariy - "Al-Mufasssal fi San'at al-I'rab" - Bayrut, 1985 - B. 5.
6. Mahmud Zamakhshariy - "Al-Kashshof an Haqaiq at-Tanzil" - Qohira, 1925 - J. 1, B. 10.
7. Mahmud ibn Umar az-Zamakhshariy - "Asos al-Balaghah" - Bayrut, 1987 - B. 3.
8. "Zamakhshariyning o'rinbosari" – oliymahad.uz, 2024 yil. (oliymahad.uz)
9. Mahmud ibn Umar az-Zamakhshariy - "Asos al-Balaghah" - Bayrut, 1987 - B. 3.
10. Ibn Xallikon - "Vafayatul A'yan" - Bayrut, 1968 - J. 5, B. 197.
11. Ahmad Muhammad Xufiy - "Fiqh al-Lugha" - Bayrut, 1998 - B. 123.
12. Brokkelman K. - "Arab adabiyoti tarixi" - Berlin, 1932 - B. 57.
13. Zamakhshariy - "Al-Kashshof" - Misr, 1938 - B. 45.
14. Xolidov B.Z. - "O'rta asr arab tilshunosligi" - Toshkent, 1982 - B. 79.
15. ابن هشام أ. - "شرح شذور الذهب" - مصر، القاهرة، مكتبة الآداب، ١٩٩٣ - ص. ٧٤.
16. Versteegh J. - "The Arabic Language" - UK, Edinburgh University Press, 1997 - P. 143.
17. Wright W. - "A Grammar of the Arabic Language" - UK, Cambridge University Press, 1896 - P. 252.